

UDK: 355.233.231

**TALABALARDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINI
SHAKLLANTIRISHDA FALSAFA TA'LIMINING METODIK TIZIMI****Xaydaraliyev Xurshid Xamidullayevich,***Farg'ona davlat universiteti jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**E-mail: x.xaydaraliyev1@mail.ru**ORCID ID [0009-9025-0373](https://orcid.org/0009-9025-0373)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada falsafa ta'limida asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning metodik tizimi va texnologiyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, manfaat, shaxs, fazilat, tarix, hujjat, patriotizm, shaxs.

Аннотация. В данной статье речь пойдет о методической системе и технологии развития патриотических качеств у студентов на основе философского образования.

Ключевые слова: патриотизм, интерес, личность, добродетель, история, документ, патриотизм, личность.

Abstract. This proverb tells about the methodological system and technology for the development of patriotic qualities in students based on the education of philosophy.

Keywords: patriotism, profit, person, virtue, history, prejudice, patriotism, person.

Kirish. Falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish, o'z navbatida mazkur japyonni amaliylashtirishni, ya'ni ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda texnologik yondashuvni tatbiq etishni talab etadi.

Bugungi innovatsion ta'lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Texnologik yondashuvning eng asosiy afzalliklari kutiladigan natijalarning oldindan aniqlanishi, ana shu natijalarga asoslangan holda o'quv maqsadining aniq belgilab olinishi, o'z navbatida ta'lim maqsadini o'quv vazifalarga aylantirilishi, ta'lim shakl, metod va vositalarining to'g'ri tanlab olinishini tashkil etadi. O'quv jarayonini texnologiyalashda professor-o'qituvchi va talaba faoliyati bosqichlarini alohida-alohida texnologiyalashni taqozo etadi.

Falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish tizimini amalga oshirish da quyidagi vazifalar qo'yildi va hal qilindi:

- vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish darajasini aniqlash mezonlari va ko'rsatkichlarining ishonchligini tekshirish;
- birinchi bosqich talabalarining vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning boshlang'ich darajasini aniqlash;
- biz ishlab chiqqan tizimni qo'llash natijasida vatanparvarlik fazilatlarini rivojlan darajasi dinamikasini tekshirish.

Adabiyotlar tahlili. R.Kurbanov, E.Qalqonov, O.Abdurasulov, A.Redjaboyevlarning yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning nazariy-metodologik muammolari, milliy vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati oliy o'quv

yurtlaridagi ta'limning milliy yo'nalishlaridagi yangilash bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.Gayazov, V.Gladik, V.Jernov, V.Jurova, N.Irrolitova, T.Luginina, Z.Mazir, Yye.Mitina, L.Orinina, Y.Rodlesnaya, O.Roluxin, L.Rudchenko, Sh.Xayrulin, O.Yarigin kabilar pedagogik jarayonda vatanparvarlikni tarbiyalash va fidoyilik, sadoqatlik va mas'uliyatlikni mustahkamlashning pedagogik asoslari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish maqsadida mumkin qadar samarali, ta'sirchan metod, usul va vositalarni tanlab olishga alohida e'tiborni qaratdik.

Tahlillar va natijalar. Bu boradagi pedagogik faoliyatning quyidagi shakllar yordamida amalga oshirilishi tadbirlarning samarali bo'lishini tasdiqladi (1.1-jadval):

1.1-jadval

Falsafa ta'limida foydalanish uchun usul va vositalar shakllari

	Usullar va vositalar	Mazmuni
1.	Falsafiy suhbat	1. 1. Vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishda "milliy g'urur" va "milliy o'zlik"ni anglash va ularning mohiyati 2. Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish uchun qanday shakllantirish mumkin?
2.	Bahs-munozara	1.Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usi shakllanganmi? 2.Vatanparvarlik fazilati qanday vaziyatda shakllanadi, unga nimalar ta'sir ko'rsatadi, sotqinlikning falsafiy mazmuni nima?
3.	Davra suhbat	1.Ajdodlar tarixi – milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi muhim manba 2.Milliy qadriyatlar va vatanparvarlik
4.	Ekskursiya	1."O'zbekiston tarixi" muzeyiga sayohat va tarixiy qahramonlar bilan tanishuv 2.Qadimiy shaharlar – millat g'ururi
5.	Ko'rik-tanlovlar	1.Mening idealim bo'lgan tarixiy shaxs (insholar tanlovi) 2.Vatanparvar inson mening talqinimda
6.	To'garak	"Vatanparvar yoshlar" to'garagi.

Yuqorida mavzulari ko'rsatib o'tilgan o'quv mashg'uloti usullarining har biri o'zida oliy ta'lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish borasidagi umumiy va xususiy maqsadni aks ettira oldi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida o'quv mashg'ulotlarini muayyan loyiha asosida tashkil etishga alohida e'tibor qaratdik. Quyidagi ana shu to'g'risida so'z yuritimiz.

«Vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishda "milliy g'urur" va "milliy o'zlik"ni anglash va ularning mohiyati", "Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish uchun qanday shakllantirish mumkin?" mavzusidagi suhbatlar asosan guruhlarda tashkil etildi. Suhbatlar uchun mavzuga doir savollar oldindan tayyorlanib, ishtirokchilar e'tiboriga

havola etiladi. Suhbat chog'ida barcha ishtirokchilarning faol ishtirok etishlari, o'z shaxsiy mulohazalarini ifoda etishlari uchun sharoit yaratiladi. Ana shu maqsadda interfaol metodlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Chunonchi, «Kichik guruhlarda ishlash», «Qarorlar shajarasi», «Tafakkur cho'qqisi», «Yumaloqlangan qor o'yini» hamda «Klaster» metodlari yordamida talabalar vatanparvarlik fazilatining mohiyati, uning shaxsda namoyon bo'lishi haqidagi fikrlarini tengdoshlari bilan o'rtoqlashadilar.

Suhbat maqsadi: vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishda "milliy g'urur" va "milliy o'zlik"ni anglash va ularning mohiyati to'g'risidagi shaxsiy mulohazalarini aniqlashdan iborat. Suhbat mazmunining umumiy mohiyati: vatanparvarlik fazilatiga egalik shaxsning muayyan yurt vakili sifatida o'z yurti, eli, millati taqdiriga befarq bo'lmaslik, uning taraqqiyotini ta'minlash, shuningdek, uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rnini mustahkamlash va obro'sini oshirish yo'lida xizmat qilish sharaflı burch ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni talabalarda hosil qilish; ularda vatanparvarlik fazilatiga ega bo'lishdek ichki zaruriyatni yuzaga keltirish.

Suhbat jarayonida yoritilishi zarur bo'lgan tayanch tushunchalar: millat, millatparvarlik, vatanparvarlik, muayyan millatga mansublik, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash, millat sha'ni, qadr-qimmatı va obro'si, millat taqdiri, insoniy burch. Suhbatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan jihozlar: «Falsafa. Qomusiy lug'atı», yozuv taxtasi, toza yozuv qog'ozlari, ruchkalar, skotch, mutafakkirlarning vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash haqidagi qarashlari yoritilgan plakat.

Talabalar e'tiboriga havola etilgan savollar:

- Siz vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?
- Sizning fikringizcha, vatanni sevish vatanparvarlikmi?
- Milliy o'zlikni anglash – shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini baholashmi? Bu haqida Siz qanday fikrdasiz?
- Qanday shaxsda vatanparvarlik fazilati mavjud deyish mumkin?

Suhbatning borishi: 1-bosqich: Talabalar interfaol metodlar yordamida ishlash jarayonining umumiy, shuningdek, «Kichik guruhlarda ishlash» va «Klaster» metodlarining mohiyati bilan tanishtiriladilar.

2-bosqich: 5-6 nafar talaba guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh dastlab birinchi, keyin esa navbat bilan ikkinchi va uchinchi savollar bo'yicha o'z guruhlarida munozaralar tashkil etishadi. Guruh a'zolarining umumiy fikrlariga asoslangan holda yozuv qozog'iga «vatanparvarlik», «millatparvarlik», «fidoyilik», «milliy g'urur», «milliy o'zlikni anglash» tushunchalariga ta'rif yozadilar. Har bir guruhning lider talabasi suhbat ishtirokchilari oldida ta'riflarni o'qib eshittirib, o'z qarashlarini himoya qiladi.

3-bosqich: «Klaster» metodini qo'llash asosida har bir guruh talabalari vatanparvarlik fazilatiga ega shaxs faoliyatida namoyon bo'luvchi jihatlarni tasvirleydilar. Guruhlarning mulohazalari suhbat ishtirokchilari e'tiboriga havola etiladi.

4-bosqich: Talabalar mutafakkirlarning vatanparvarlik to'g'risidagi qarashlari bilan tanishtiriladilar, shuningdek, lug'atlarda qayd etilayotgan tushunchalarga berilgan ta'riflar mohiyati o'rganiladi.

5-bosqich: Talabalarning suhbat natijasi to'g'risidagi taassurotlari tinglanib, o'qituvchi tomonidan suhbat uchun tanlangan mavzu yuzasidan umumiy xulosalar bayon etiladi.

1. "Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish uchun qanday shakllantirish mumkin?" mavzusida olib borilgan suhbat ham o'zida umumiy maqsadni aks ettirishi bilan birga xususiy maqsadni ham ifodaladi. YA'ni, suhbatning maqsadi: talabalarni shaxsda vatanparvarlik fazilatini rivojlanishiga yordam beruvchi omillardan xabardor etish va ularning e'tiborlarini mazkur omillarga qaratishdan iborat etib belgilandi. Suhbat mazmunining umumiy mohiyati: talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantiruvchi omillar, milliy davlat ramzlari, qadriyatlar, etnopsixologik xususiyatlarni yorituvchi manbalar, millat ozodligi va mustaqilligi yo'lida kurash olib borgan tarixiy shaxslar faoliyati, jahon ilm-fani ravnaqiga munosib hissa qo'shgan o'zbek allomalar, ilmiy kashfiyotlar, tarixiy-me'moriy yodgorliklar va boshqalar.

2. Suhbat jarayonida yoritilishi zarur bo'lgan tayanch tushunchalar: talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantiruvchi omillar, davlat ramzlari, qadriyatlar, etnopsixologik xususiyatlarni yorituvchi manbalar, milliy qahramonlar, o'zbek allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy kashfiyotlar, tarixiy-me'moriy yodgorliklar.

3. Suhbatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan jihozlar: davlat ramzlarining tasvirlari, milliy mentalitet mohiyatini ochib beruvchi manbalar, tarixiy qahramonlarning nomlari va ular tomonidan amalga oshirilgan faoliyatning e'tiborli jihatlari, shuningdek, o'zbek allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy kashfiyotlar haqidagi ma'lumotnoma, tarixiy-me'moriy yodgorliklar to'g'risidagi ilmiy materiallar, mutafakkirlarning vatanparvarlik to'g'risidagi qarashlari yoritilgan plakat.

4. Talabalar e'tiboriga havola etilgan savollar:

- Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantiruvchi omillar nimalardan iborat?
- Sizning fikringizcha, davlat ramzlari targ'iboti vatanparvarlikni rivojlantirishga yordam beradimi?
- Milliy qadriyatlarning talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishdagi ahamiyatini qanday baholaysiz? Fikringizni dalillar bilan asoslang.
- Tarixiy shaxslar faoliyati shaxsan Siz uchun vatanparvarlik tuyg'usini his etishingizga yordam berganmi?
- Qaysi o'zbek allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy kashfiyotlarni vatanparvarlikni tarbiyalashdagi ahamiyatini yuqori baholagan bo'lar edingiz?
- Sizning fikringizcha, tarixiy me'moriy yodgorliklarning yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishdagi roli qanday?

Suhbatning borishi:

1-bosqich: Talabalarga suhbat jarayonining umumiy mohiyati hamda «Aqliy hujum» va «Keys stadi» kabi interfaol metodlar bilan ishlash qoidalari haqida ma'lumotlar beriladi.

2-bosqich: Talabalar olti guruhga bo'linadi. Har bir guruhga bittadan savol beriladi va ularning savollari asosida munozaralar tashkil etiladi.

3-bosqich: Talabalar qaytadan 5 ta guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga quyidagi mavzularda kichik jurnal tayyorlash vazifasi topshiriladi:

«Vatanparvarlik va yoshlar tarbiyasi».

«Milliy davlat ramzlari va vatanparvarlik».

«Ajdodlar jasorati – vatanparvarlikni rivojlantiruvchi omil».

«Millat nomini ulug'lagan ilmiy kashfiyotlar».

«Tarixiy yodgorliklar – milliy g'urur ifodasi».

4-bosqich: talabalar davriy nashrlar chop etilgan milliy rivojlanish strategiyasi, islohotlar va ularning borishi, taraqqiyot yo'limiz va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi maqolalarning asosiy g'oyalari bilan tanishtiriladilar.

5-bosqich: qisqa muddatli savol-javob asosida suhbatga yakun yasaldi.

Falsafa ta'limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda bahs-munozaralardan foydalanish ham ijobiy natijalar beradi. Ushbu fikrni inobatga olgan holda tajriba-sinov ishlari jarayonida “Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usi shakllanganmi?” hamda “Vatanparvarlik fazilati qanday vaziyatda shakllanadi, unga nimalar ta'sir ko'rsatadi, sotqinlikning falsafiy mazmuni nima?” mavzulardagi bahs-munozaralar tashkil etildi. Bahs-munozara jarayonida tashabbus to'laravishda talabalar «qo'lida» bo'lishiga e'tibor qaratildi va bu borada ilgari surilayotgan g'oyalarga qat'iy amal qilindi. Jumladan, munozara chog'ida o'qituvchi tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyatning talabalar faolligini rag'batlantirishini ta'minlashga oid J.T.Dillonning quyidagi qarashlari o'ziga xos ahamiyat kasb etdi:

Tasdiqlash – talabalarning fikrlarini tasdiqlab, ularning tengdoshlar tomonidan anglanganlik holatini aniqlashga xizmat qiladi. Bu o'rinda «Demak, Sizning fikringizcha ... shunday, to'g'rimi?» «Bizning tushunishimizcha, Siz ... demoqchisiz» kabi murojaatlardan foydalanildi.

Savollar yordamida talaba fikrini qo'llab-quvvatlash. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, talabalar o'qituvchining savollariga nisbatan tengdoshlari tomonidan berilgan savollar yuzasidan qizg'in bahs yuritishar ekan, shu bois munozara jarayonida ko'proq talabalar tomonidan savollarning o'rtagatashlanishi uchun sharoit yaratildi.

Signallar – mimika, pantomimika va jestlar yordamida talabaning fikrini ma'qullash, qo'llab-quvvatlash. Ma'lum bo'lishicha, munozaralar jarayonida o'qituvchining izohli sharhidan ko'ra ko'proq uning mimika, pantomimika va jestlar yordamida talaba fikriga nisbatan munosabat bildirishi ta'sirchan kuchga ega. Shu bois so'z yuritilayotgan vaziyatda ular (yuzada fikrni anglamaganlik, mamnunlik, «fikringizni

davom ettiring», «fikringizni tugatdingizmi?» kabi ifodalarning aks etishi) kabi holatlardan o‘rinli foydalanish ishtirokchilar faolligini keskin oshirdi va munozaraning muvaffaqiyatli borishini ta‘minladi.

Sukut saqlash – savol berilgach, talabalarga o‘ylash, fikrlarini jamlab olish uchun imkoniyat berish. Bu holat talabalarni noto‘g‘ri mulohaza yuritish yoki fikrlarini to‘la asoslay olmasligining oldini olishga xizmat qiladi.

Munozalar jarayonida talabalarni qo‘llab-quvvatlovchi «Balli!», «Barakalla!», «Judasoz!», «Yaxshi», «Shundaymi?», «Nahotki, shunday!» kabi ta‘kidlardan foydalanish ham o‘zining samarasini berdi. Shuningdek, talabalar tomonidan mutlaqo noto‘g‘ri va mantiqsiz fikrlar bildirilishining oldini olishga alohida e‘tibor berildi. Bu o‘rinda «Yaxshi, Siz fikrlaringizni jamlab oling. Unga qadar tengdoshingiz Zokir o‘z qarashlarini bayon etadi» kabi murojaatlardan foydalanildi.

Xulosa. Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetning shakllanishi bilan ham bog‘liqligi, bunda vatanparvarlik fazilati rivojlangan talabaning mafkuraviy immuniteti kuchli bo‘lishi va mafkuraviy immunitetga ega bo‘lgan talabaning esa ma‘naviyati yanada yuksalib borishiga asos bo‘lishi asoslandi. Vatanparvarlik ona yurtining, xalqining tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat va vatanga, xalqqa bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyatiga ta‘sir qilib, ularni mas‘uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etuvchi kuch ekanligi aniqlashtirildi. Tahlillar asosida vatanparvarlik – davlat yashovchanligining jamiyat rivojlanishining muhim ichki safarbarlik manbasi, shaxsning faol fuqarolik qarashlari, uning o‘z Vataniga fidokorona xizmat qilishga tayyorligi sifatida namoyon bo‘luvchi ma‘naviy asos hisoblanishi umumiy xulosa sifatida shakllantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Отамуротов С., Мамашокиров С., Холбеков А., Лафасов М. Марказий Осиё: ғоявий жараёнлар ва мафкуравий таҳдидлар. – Тошкент: IJOD DUNYOSI, 2001. – Б. 18.
2. Фрейд З. Психология бессознательного: Сборник произведений. Сост., науч. ред., авт. вступ. ст. М. Г. Ярошевский - Москва Просвещение. 1990. -517 с.
3. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Тошкент: Университет, 1998. –Б. 148-164.
4. Ҳарбий хизмат ахлоқи. Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. – 110 б.
5. Эргашев Б.Э., Неъматов Б.М. Маънавий-ахлоқий ва ҳарбий тарбияни такомиллаштириш йўллари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Қурулли Кучлари Академияси, 2004.
6. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар (маънавиятга таҳдид солувчи иллатлар). –Тошкент: Turonzaminziyo, 2015. – 400 б.